

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Mirzaaxmedova, B.Sh.Shermuhammadov Xorij tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasining yoritilishi.....	9
A.A.Tolametov Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida tadqiqot.....	15
I.R.Jumaniyazov Talabada musiqa ta'limi jarayonida kreativ qobiliyatni aniqlash va rivojlantirish.....	20
Sh.I.Allamuratov Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini pedagogik tahlil qilish.....	24
N.M.O'rinova, M.I.Muxammadjonova Xorijiy ta'limda tyutorlik dasturlarining mohiyati va ulardan foydalanish imkoniyatlari	30
N.M.Merganova Chet tili darslarida dialogik nutq turi va polilogdan foydalanish.....	36
A.A.Tolametov, M.M.Baxromov Kompyuterning inson hayoti va salomatligi uchun ta'siri.....	40
Y.U.Egamberdiyeva Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchisining ochiq qo'shma faoliyatini metodik rivojlantirish texnologiyalari	44
A.Abdulayev, J.Abdullayev Jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni bolalar va o'smirlar organizmning funksiyasiga ta'siri.....	52
Q.Y.Nazirov Yosh kurashchilarni dastlabki texnik va taktik tayyorlashning uslubiy asoslari.....	57
T.T.Yusupov Kurashchlarning texnik mahoratini oshirish yo'llarini o'rgatish mexanizmlari	61
B.B.Xaitbaeva, F.A.Alijonova Роль ритмической гимнастики в развитии координации движений у детей с нарушениями развития.....	64
O.N.Madaminov Jismoniy tarbiyani boshqa fanlar bilan bog'liqligi	71
S.Muzafarova Yangi O'zbekiston yoshlari tafakkurini rivojlanishda sharq mutafakkirlari va jadid ma'rifatparvarlarining san'at va madaniyat sohasiga doir qarashlarining estetik xususiyatlari	74
N.Sh.Urinova Boshlang'ich ta'limda ingliz tili fanini o'qitish jarayonida steam texnologiyasidan foydalanishning roli	78
D.D.Boymirzayeva Bo'lajak ta'lim menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning nazariy jihatlar.....	83
I.Ikromov Gimnastika mashqlari komplekslarini tuzish va o'tkazishga qo'yiladigan talablar va ularni turli maktabgacha yoshdagilar uchun tuzish metodikasi.....	87
E.Rahimov O'zbek xalq qo'shiqlarining yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi roli va vazifalari	94
Sh.B.Bekchonova Kiberpedagogikaning ilk rivojlanish davrlari va hozirgi kunda ta'lim samaradorligini oshirishga ta'siri	98
Z.Y.Xamraqulov Jinoyat huquqi rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslari	101
E.B.Nabiyev Tarix fanini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati	107
O.A.Василченко Профессиональное самосознание педагога - музыканта – хормейстера.....	111



UO'K: 037+789.43(078)

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARINI JISMONIY TARBIYA
DARSLARIDA TADQIQOT****ИССЛЕДОВАНИЕ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ НА УРОКАХ
ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ****RESEARCH IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES OF STUDENTS OF GENERAL
SECONDARY EDUCATION SCHOOLS****Tolametov Abdualil Abdujaparovich**

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining pedagogika va psixologiya kafedrasini professori

Annotatsiya

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya darslarida tadqiqot uslublari, Umumiy o'rta ta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar maktablarida, oliy o'quv yurtlarida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslari, umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashq jarayonida bolalarning harakat faolligi, jismoniy sifatlarni maxsus mashqlar yordamida hamda harakatli o'yinlardan foydalanishga doir kasbiy-nazariy bilimlarni tahlili yoritilgan.

Аннотация

В данной статье освещаются методы исследования на уроках физической культуры, проводимые в общеобразовательных школах, академических лицеях и профессиональных училищах, высших учебных заведениях, анализ двигательной активности детей в процессе занятий по общефизической подготовке, профессионально-теоретические знания об использовании физических качеств с помощью специальных упражнений и подвижных игр.

Abstract

This article covers research methods in physical education classes in general secondary education schools, academic lyceums and vocational schools, higher education institutions, movement activity of children in the process of training in general physical fitness, the use of physical qualities with the help of special exercises and vocational-theoretical knowledge on the use of action games.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanganlik, jismoniy tarbiya va sport, respondent, xarakat faoligi, jismoniy sifatlari, musobaqa, normativ, statistika.

Ключевые слова: физическая подготовленность, физическое развитие, физическое воспитание и спорт, респондент, двигательная активность, физические качества, конкуренция, норматив, статистика.

Key words: physical fitness, physical development, physical education and sports, respondent, movement activity, physical qualities, competition, normative, statistics.

KIRISH

Tadqiqotning dolzarbligi. Ta'lim sifati va uning samaradorligini ta'minlash ko'p jihatdan Davlat ta'lim standartlari, dastur, darsliklar mazmunining o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantira olish darajasiga bog'liq.

Tadqiqotlar quyidagi uslub va test mashqlari yordamida o'tkazildi; mavzu doirasida yig'ilgan adabiyotlarning qiyosiy tahlil qilish, so'rovnomani o'tkazish, pedagogik tajriba, matematik-statistik uslub. Ta'limning bosh maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'quv-metodik majmualarga kiritiladigan materiallar mazmuni o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning mustaqil faoliyat ko'rsatishi, individual fanlar mazmunida uzviylik va uzluksizlikni ta'inlash tamoiylarini hisobga olgan holda tanlanishi lozimligi qayd etilgan.

Yosh avlodning o'sib - ulg'ayishi uchun yaratilgan shart-sharoitlardan, ularning o'z iqtidorlarini namoyon etishlari uchun berilgan imkoniyatlardan samarali foydalanishni tashkil etish xalq ta'limi tizimi oldidagi muhim masalalardan sanaladi. Ta'lim tizimidagi islohatlar dars uslublari va shakllarini o'zgartirish talab etiladi.

Jismoniy tarbiya darsi – Umumiy o'рта ta'lim maktablari o'quvchilari jismoniy tarbiyasini tashkil toptirishning asosiy shaklidir. Jismoniy tarbiya o'quv rejasida nazarda tutilgan o'quv fanidir. Fanning mazmuni davlat dasturi bilan tartiblashtiriladi. Amalga oshirish esa, jismoniy tarbiya darslarida amalga oshiriladi. Shunday qilib, darslarga qatnashish barcha o'quvchilar uchun majburiydir. O'qituvchi o'quvchilarga ko'nikma va mahoratlarini tashkil toptirish mashqlarini bajara olish bilimlarini, har biri nazorat tizimida ishlashini ta'minlashi kerak. Demak, jismonan sog'lom, aqlan barkamol avlodni tarbiyalash jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish asosida samarali amalga oshirilishi mumkin. To'g'ri, barcha o'quv muassasalari kabi, umumiy o'рта maktablarda ham jismoniy tarbiya bo'yicha yangi davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, rejalari va boshqa me'yoriy hujjatlar o'qituvchi- murabbiylar xizmatida faoliyat ko'rsatmoqda. Umumiy o'рта ta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar maktablarida, oliy o'quv yurtlarida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslarini voleybolsiz tasavvur qilish qiyin.

Voleybol sport turi – o'z mohiyati, mazmuni va rom qiluvchi turli o'yin malakalari va kombinatsiyalari bilan millionlab kishilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jismoniy tarbiya darslarida voleybol sport turini harakatli o'yinlar va noan'anaviy mashqlar yordamida olib boriladigan vosita va uslublariga doir hamda ularning pedagogik sohadagi adabiyotlar tahlil qilib umumlashtirildi.

O'quvchilariga voleybol tupini boshqarishni o'rgatishda amaliy tajribada umumlashtirilgan maqsadda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining tajribasi so'roq varaqalari orqali aniqlanib umumlashtiriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot o'tkazish tartibi. Tadqiqot 10 oy davomida ikki guruh ishtirokida amalga oshirildi. Bular nazorat va tadqiqot guruhlari. Nazorat guruhida ishtirok etgan jismoniy tarbiya darslarida voleybol sport turidagi amalidagi jismoniy tarbiya dasturi asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar kuzatildi.

Tadqiqot guruhi mashg'ulotlari jarayonida jismoniy tarbiya dasturi bo'yicha beriladigan mashqlar qisqartirilib, dars tarkibiga voleybolchiga xos maxsus sifatlarni oshirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar majmuasi kiritildi.

Matematik statistika uslublari.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilindi, oldingi olingan natijalar solishtirildi hamda matematik statistika usullari bilan olingan ma'lumotlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotlar, tajribalar matematik statistik uslubda ishlab chiqildi. Unda guruhlarning statistik ko'rsatkichlari (o'rtacha kvadrat og'ma, variatsiya koeffitsienti va boshqalar) hisoblab chiqildi.

Shuningdek, statistik farazlar (Styudent t-mezoni bo'yicha) aniqlandi. Barcha hisob-kitob ishlarida «Windows-Excel» kompyuter dasturidan foydalanildi.

Tahlil qilish jarayonida 15-16 yoshdagi voleybolchilarni umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga doir nazariy va amaliy mashg'ulotlari o'rganildi.

Test mashqlari.

1. 30 m ga yugurish:
2. Joydan turib vertikal sakrash(sm):
3. Yugurib kelib vertikal sakrash (sm):
4. Turnikda tortilish (marta):
5. 100 m ga yugurish (s):
6. Archasimon yugurish (s):
7. To'pni zonalarga aniq kiritish:
8. To'pni basketbol to'riga jarima chizig'idan aniq uzatish:

Qayd etilgan tadqiqot uslublarini qo'llash tartibi va ularning mazmuni muvofiq bandlarda to'liq aks ettirilgan.

Pedagogik kuzatish va nazorat testlari.

O'quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida voleybol sport turiga o'rgatishda, ularni jismoniy sifatlarni maxsus mashqlar yordamida hamda harakatli o'yinlardan foydalanishi ularning jinsiga, yoshiga qarab, jismoniy tayyorgarligi hisobga olgan holda aniqlandi.

Bunda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, ochiq havodagi voleybol darsida milliy harakatli o'yinlar orqali, umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashq jarayonida bolalarning harakat faolligini oshirishga, shikastlanishning oldini olishga qaratilgan tarzda o'tkazildi.

PEDAGOGIKA

Nazorat qilingan sinflarda o'zbek milliy harakatli o'yinlari bo'yicha jismoniy tarbiya mashg'ulotlari tanlab olingan samarali vositalar asosida o'tkazildi.

Tadqiqotning tashkil qilinishi

Tadqiqot 2 bosqichda tashkil etildi. Birinchi bosqich muammoning nazariy tahliliga, pedagogik kuzatuvlarga, tadqiqot mavzuga asos bo'lgan tajriba bo'yicha, tadqiqot usullarini ishlab chiqishga qaratildi. Yosh voleybolchilarni sakrovchanliklarini maxsus mashqlar va harakatli o'yinlarga oid adbiyotlar manbalari o'rganildi va tahlil qilindi. Yakunlovchi tajriba natijalari tahlil etilib, taqqoslandi, umumlashirildi, ma'lumotlar matematik va statistik usullar bilan ishlab chiqildi.

1-jadval

Farg'ona shaxridagi 3-umumta'lim maktabida o'tkazilayotgan voleybol darsining saviyasini o'rganishga oid so'rovnoma natijalari

	Savollar	Javoblar variantlari					
		Ha, yaxshi, yuqori		Yo'q, yomon, sust		Qisman, bilmayman, muntazam emas	
1.	Dars boshlanishida mavzu (dars vazifasi) aytiladimi	14	23,33	8	13,3	38	63,33
2.	Voleybol darsini yoqtirasizmi.	49	81	7	11,6	4	6,6
3.	Voleybol darsi qiziqarli o'tadimi	31	51,6	17	28,3	12	20
4.	Voleybol darsida sinf faolligi.	33	55	11	18,3	16	26,6
5.	Voleybol to'pi etarlimi.	3	5	47	78,3	10	16,6
6.	Voleybol zali to'la jixozlanganmi	9	15	48	80	3	5
7.	Voleybol darsida ijro va o'yin intizomi qanday	31	51,6	19	31,6	10	16,6
8.	Voleybol darsida maxsus normativlar qabul qilinadimi	5	8,3	44	73,3	11	18,3
9.	Voleybol darsida baholar adolatli qo'yiladimi	27	45	21	35	12	20
10.	Voleybol darsida o'yin malakalari konspekt asosida o'rgatiladimi.	7	11,6	47	78,3	6	10
11.	Dars yakunida uy vazifasi beriladimi.	11	18,3	38	63,3	11	18,3
12.	Voleybol bo'yicha nazariy dars o'tiladimi	9	15	35	58,3	16	26,6
13.	Voleybol bo'yicha yozma ish (referat) tayyorlash vazifalari beriladimi.	3	5	48	80	9	15
14.	Sinflararo musobaqalar o'tkaziladimi.	27	45	24	40	9	15
15.	Maktabingizda voleybol to'garagi bormi.	29	48,3	17	28,3	14	23,3
16.	Siz voleybol to'garagiga qatnashasizmi	34	56,6	9	15	17	28,3
17.	To'garakda mashg'ulotlar muntazam o'tkaziladimi.	19	31,6	23	38,3	18	30
18.	Boshqa maktablar jamoalari bilan o'rtoqlik uchrashuvlari o'tkaziladimi.	21	35	29	48,3	10	16,6
19.	Maktab jamoangiz tuman yoki viloyat musobaqalarida yuqori o'rinlarni olganmi.	27	45	21	35	12	20
20.	Maktabingizda yuqori razryadli va viloyat terma jamoasiga a'zo voleybolchilar bormi.	17	28,3	37	61,6	16	26,6

Savolnoma natijalaridan ko'rinib turibdiki, qishloq maktablarida voleybolga bo'lgan qiziqish doirasi nihoyatda keng va o'quvchilar voleybol darsida faol ishtirok etar ekanlar, jumladan voleybolga qiziqadigan o'quvchi respondentlar 81,0% ni tashkil etsa, voleybol bilan alohida darsdan tashqari to'garaklarda shug'ullanuvchilar soni 56,6 % ga teng.

Bu borada qishloq maktablarida jismoniy tarbiya darsini o'tish, uni uslubiy saviyasi, o'quvchilarni darsda ishtirok etishi, faolligi va boshqa masalalar haqida tasavvur hosil qilish alohida ahamiyatga egadir.

O'tkazilgan savol-javoblarga ko'ra shu narsa ma'lum bo'ldiki, jismoniy tarbiya darsi har doim ham darsni mavzusi va uning vazifalarini e'lon qilishi bilan boshlanmas ekan. Chunonchi, 13,3% respondent o'quvchilar dars boshlanishidan oldin o'qituvchi dars vazifalari bilan tanishtirmas ekanlar, 63,3% respondentlar dars vazifalari umuman tanishtirilmasligini qayd etishgan. Faqatgina respondentlarning 23,3% gina dars vazifalari e'lon qilinishini ma'lum qilishgan.

Voleybolni rivojlantirishga qaratilgan shart-sharoitlar, masalan to'plarning etar-etmasligi, o'yin zalining jixozlanganligi o'qituvchi murabbiyning voleybolga oid kasb tayyorgarligi yuqori

bo'lganda edi, aniq aytish mumkinki shug'ullanuvchilar soni yanada ko'proq foizni tashkil etgan bo'lar edi.

Afsuski ushbu ko'rsatgichlar savolnoma natijalariga ko'ra juda kam foizni kuzatishga imkon berdi. Chunonchi, darsni qiziqarli o'tish darajasi hammasi bo'lib 51,7%ga teng bo'layapti. Ushbu fazilat mashg'ulot davomida sinf faolligi darajasini (55 %0 yuqori deb aytish imkonini bermaydi. Dars intizomi xam talabga javob bermaydi (51,2%). Darsni uslubiy jihatdan yuqori saviyada va aniq yo'naltirilgan reja asosida o'tkazish ko'zlangan pirovard samarani berish isbotni talab qilmaydi.

Lekin o'tkazilgan savolnoma bo'yicha shu narsa ma'lum bo'ldiki, darsni ilmiy-uslubiy jixatdan tashkil qilish, uni samarasini aniqlash qolaversa berilayotgan mashqlar o'quvchilarga ta'sir etish darajasini baholashda maxsus normativlardan deyarli foydalanilmas ekan.

Foydalanish darajasi hammasi bo'lib 8,3 foizga teng. Dars bayonnomasi kabi o'quv xujjatlariga asosan dars o'tish 11,7%ni tashkil etayapti. Qolgan 11-20 savollar ham e'tiboringiz uchun joylarda, ya'ni o'rganilgan qishloq maktablarida voleybol darslarining ahvoli, uning uslubiy saviyasi va samaradorligi shart-sharoit yaratish, o'qituvchi murabbiylar malakasini oshirish va umuman voleybolni rivojlantirishga bo'lgan munosabat nochor ahvolda ekanligidan darak berib turibdi.

Bu albatta shu maktablardagi murabbiy, o'qituvchi va rahbarlarning vakolatiga qisman bo'lsada kiradi. Lekin, o'rta maktablarning moddiy-texnikasi imkoniyatlarini tubdan yaxshilash sport inshootlarini qayta ta'mirlash, yangisini qurish, ularni sport jixozlari va anjomlar bilan ta'minlash yuqori tashkilotlar mutasaddi raxbarlarining vakolatli burchidir.

Shu bilan bir qatorda shu narsani ham ta'kidlash joizki, hozirgi kunda maktablarning moddiy-texnik ahvoli qanday bo'lishidan yoki bu ahvol qachon yaxshilanishidan qat'iy nazar har bir jismoniy tarbiya o'qituvchisi nafaqat mutaxassis bo'lishi kerak, balki u tadbirkor, tashabbuskor va fidoiy ham bo'lishi darkor.

O'quvchilarni jismoniy tarbiya va sportga qiziqтира olishi, ularni qo'shni maktablarga musobaqalarga olib borishi, o'z maktabida namunali turnirlar o'tkazib turish lozim. Buning uchun har bir o'qituvchidan tashkilotchilik qobiliyati talab qilinadi.

Yuqorida qayd etilgan so'rovnoma natijalari qishloq maktablarida jismoniy tarbiya va sport ishlarini yangi pog'onaga ko'tarishni, o'qituvchilarni esa dars o'tish saviyasi, ularning malakasini oshirish vazifasini o'rtaga tashlamoqda.

XULOSA

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili hamda savolnoma natijalari shundan dalolat berdiki, o'rta umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darsini to'g'ri rejalashtirish, tashkil qilish, ayniqsa dars mazmuniga jiddiy e'tibor qaratish o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sportga qiziqtirish, ularni muntazam mashg'ulotlarga jalb qilish borasida muhim ahamiyatga ega.

Lekin, savol-javob natijalari qishloq maktablarida jismoniy tarbiya darslarini maqsadga muvofiq tarzda o'tkazish yo'lga qo'yilmagan. Dars mavzulari va vazifalari aksariyat hollarda tushuntirilmaydi. Mashg'ulot mazmunlari talabga javob bermaydi, darsda qo'llaniladigan mashqlar yuklamalari nazorat qilinmaydi.

O'tkazilgan pedagogik tadqiqotlar qishloq maktablarning shart-sharoiti va sport inshootlarining ahvoliga qarab hamda har bir maktabni moddiy imkoniyatiga asoslangan holda muayyan sport turiga ixtisoslashtirilgan sinflarni tashkil qilish afzalligiga e'tibor qaratadi.

Amaliyotga tavsiya etilayotgan maxsus harakatli o'yinlarni va aylanma tezlanishlarga oid noan'anaviy mashqlardan o'quv yilining barcha choraklarida hamda yilning barcha mavsumlarida ochiq va yopiq sport inshootlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda muntazam foydalanish, ayniqsa qishloq maktablarida jismoniy tarbiyani jarayonini ommaviy shakllanishiga turtki bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nematdjan, M., & Raxmiddin, A. (2022, November). MEANS AND METHODS OF TRAINING IN THE PREPARATION OF SWIMMERS ON LAND AND IN WATER. In *E Conference Zone* (pp. 34-43).
2. Мамажонов, Н., & Бакирова, М. (2022). МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИ ВА РИВОЖЛАНГАНЛИГИНИ ТАХЛИЛ ҚИЛИШ ҚИЛИШ ВА БАҲОЛАШ. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 6, 13-19.
3. Neimadjon, M. (2023). ANALYSIS OF MORPHOFUNCTION CHARACTERISTICS OF GENERAL SECONDARY SCHOOL STUDENTS OF FERGANA CITY. *Conferencea*, 107-116.
4. Mamadjanov, N., & Nazirov, M. (2022). FARG 'ONA SHAHAR UMUMIY O 'RTA TA'LIM MAKTABLARI YUQORI SINIF O 'QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIK NATIJALARI TAHLILI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(5), 152-159.

PEDAGOGIKA

5. Maxsud o'g'li B. M. USE OF INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL WORK IN SCHOOLS //International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2023. – T. 10. – №. 10.
6. Maxsud o'g'li B. M. THE IMPORTANCE OF" INFORMATICS" SCIENCE FOR PRIMARY CLASSES IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2023. – T. 10. – №. 10.
7. Maxsud o'g'li B. M. EFFECTIVENESS OF MODERN TECHNOLOGIES OF INFORMATION TRAINING //Intent Research Scientific Journal. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 38-43.
8. Maxsud o'g'li B. M., Muxammadjonovich I. B. TA'LIM TIZIMIDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 22. – №. 2. – С. 24-32.
9. Xonkeldiev, Sh., va Uraimov, S. R. (2021). Talabalar harakat qobiliyatlarining omilli tuzilishi.
10. Xonkeldiev, Sh., va Xasanov, A. T. (2015). Talabalarning jismoniy tayyorgarligining to'g'ri me'yorlarini yaratish metodikasi. Intl . *ilmiy-amaliy konf. Toshkent* (332-333-betlar).
11. Bondarevskiy, E. Ya., Xankeldiev, Sh., Tursunov, O. (1985). Yoshlarning jismoniy tayyorgarligiga iqlim-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri. *Fizika nazariyasi va amaliyoti. Madaniyatlar*, (7), 32-34.
12. Abdullaev, A. A. va Xankeldiev, Sh. (2007). Zhismonii madaniyat nazariyasi va usubiyoti.